

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY IJODIY MEROSINING MILLIY MADANIYATIMIZ VA XALQIMIZ ADABIY ESTETIK TAFAKKURINING SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

Ixtiyorova Durdonaxon Bekzodxon Qizi

Jdpu O'zbek Tili Va Adabiyoti Fakulteti 1- bosqich talabasi

Tel:93 001 55 07

Annotatsiya :

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining milliy mumtoz adabiyotimizda tutgan o'rni, Boburning adabiy – estetik tafakkuri xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, Boburning lirik asarlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar : Zahiriddin Muhammad Bobur, lirika, g'azal, ruboiy, vatan sog'inchi, ishq – muhabbat.

Аннотация :

В данной статье рассматривается роль творчества Захириддина Мухаммад в нашей национальной мумифицированной литературе и литературно-эстетическом мышлении Вавилона. Также анализируется сравнительный анализ лирических произведений Бобура

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад, лирика, ярость, рубин, родина целителя, ишк – любовь.

Abstract:

This article discusses the role of Zahiriddin Muhammads work in our national mummified literature and the literary aesthetic thinking of Bobur. The lyrical works of Bobur are also analyzed.

Keywords: Zahiriddin Muhammad , lyrics, rage, ruby, homeland healer, love of love

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri Bobur ijodi qariyb besh yarim asrdan beri barchamizning qalbimizdan joy olib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytadigan bo'lsak: "Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz .

Bobur ijodi haqida gapirar ekanmiz uning she'rlarining umumiy hajmi to'rt yuztadan ortiq ekanligini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Boburshunoslikdagi keyingi tadqiqot ishlari uning sakkizta she'riy janrda ijod qilganligini ko'rsatadi.

Shundan g'azallari - 126ta (3tasi tugallanmagan), masnaviy - 12ta, qit'a - 23ta tutuq-20ta, fard-117ta, muammo - 54ta, ruboiy - 230ta va bir nechta masnu

she'rlardir. Uning ushbu lirik merosi "Qobul devoni" va "Hind devoni"ga jamlangan. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarni jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar sifatida xizmat qiladi. Uning "Yaxshilig'"radifli g'azalida buning guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushbu g'azalni o'qir ekanmiz Boburning hayoti qiyinchiliklarda, azob-uqubatda o'tganligini anglaymiz. Ammo Bobur o'z hayoti mashaqqatlarda o'tgan, ko'plab yomonliklarga duch kelgan bo'lsa-da, hech kim yomonlik qilishni xohlamaydi, doimo insonlarga ezgulik qilish istagida yashaydi. Buni ushbu g'azalning quyidagi baytlari orqali anglashimiz mumkin: Bori elga yaxshilig' qilgilki, mundin yaxshi yo'q, Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig' Bobur ijodida xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yor-u diyor sog'inchi, visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi. "Topmadim "radifli g'azali, "Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi ", "Tole' yo'q jonimga balolig' bo'ldi "ruboiylarida aynan mana shunday vatan sog'inchi yaqqol sezilib turibdi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi – sadoqat, visol va hijron mavzulari ham salmoqli o'rin tutadi. Uning g'azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida mashuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u axloqi noz- karashmasi yengil va o'ynoqi musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi. "Lola "g'azali "Mushkuldur" radifli g'azalida tasvirlangan yor timsoli ayniqsa go'zal topilmalarga va badiiy o'xshatishlarga boy.

Albatta, Boburning adabiy-estetik olamini tahlil etish va aniq ilmiy xulosalarga kelish uchun bu buyuk shaxs hayotining murakkab jihatlari, toj-taxt uchun kurash jarayonlari, yosh iste'dodlar, ijod ahlini qo'llab – quvvatlash borasidagi say-harakatlari, shuningdek, benazir odib, tarixchi va shoir, ulkan saltanat barpo etgan shoh qarashlari ham e'tiborga olinishi zarur. Boburning adabiy estetik olami haqida so'z borar ekan, avvalo, uning adabiyotning jamiyat hayotidagi o'rni haqidagi qarashlari o'quvchi e'tiborini jalb etadi. Shuning barobarida, adabiyot va uning vakillari ijodiga bergan bahosi umuman adabiyotning ruhiy-ma'naviy olamidagi ahamiyatini belgilashda namoyon bo'ladi. O'zbek mumtoz adabiyotining rivoji, keng ko'lamli voqealar ko'p sonli adiblarni tarbiyalashi, to'g'ri yo'lga yo'naltirishi shubhasiz, albatta. Bu sohada Alisher Navoiyning o'rni beqiyosdir. Biroq Bobur Navoiydan keyin o'zbek adabiyotiga kirib kelayotgan avlodni tarbiyalash, uning ijodiga munaqqid sifatida yondashishi bilan alohida ajralib turadi. Navoiyning dabiyotshunoslik munaqqidlik kabi tomonlarini faqatgina rivojlantirmadi balki u sohaning ma'lum darajada yuksalishiga xizmat qildi. Boburning adabiyot vazifalarini belgilashda adibning jamiyatdagi o'rni, badiiy asar mazmunini hayotga yaqinlashtirishga undashi boyitishi o'sha davr adabiy tanqidi uchun muhim manbadir. Bundan tashqari Bobur o'zi shoh bo'lgani uchun juda ko'pgina adiblarga hadiksiramay baho berdi.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida zikr etilgan ma'lumotlar Bobur ijodi jahon miqyosida tobora ommaviylashib borayotganligini ko'rsatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining hozirgi kunga qadar yuzdan ortiq jahon tillariga tarjima etilganligi dunyo olimlari

tomonidan ulug' ajdodimiz merosini har tomonlama tadqiq etishga bo'lgan qiziqishning kuchayib borayotganligi o'zbek xalqining, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishga hissa qo'shishi shubhasiz. Shuningdek, uning asarlari ayniqsa ruboiylaridagi tarbiyaviy ahamiyat bugungi yosh avlodni vatanga muhabbatli, rostgoy, diyonatli, insofli qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qudratillayev Hasan Boburning adabiy – estetik olami. Toshkent “Manaviyat” nashri 2018
2. Bobur lirikasi. H Allamberganov
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat. Mirziyoyev nutqi.
4. Ziyo. Uz sayti